

## USMONXON ALIMOVNING HAYOT YO`LLARI VA MANAVIY ME`ROSI

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov  
TATU Samarqand filiali

Z. Jozilova

TTKT fakulteti 23\_01-guruh talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada Usmonxon Alimovning hayoti va ijodi, erishgan yutuqlari, ma'naviy me'rosi va musulmonlar orasida tutgan o'rni tadqiq etiladi.

**Kalit so`zlar:** din, hadis, ma'naviy me'ros, unvon, madrasa

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, o'z zamonasidan o'zib ketgan daholar yurti bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Bakr Qaffol Shoshiy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Abulmuin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiy... nomlarining o'zi bir kitob bo'ladi. Biri kalom ilmi ustoz, biri falak toqiga narvon qo'ygan zabardast olim, boshqasi amaliy tibbiyot otasi, biri kalom ilmi durdonasi, yana biri muhaddislar sultoni.

Bizning yurtimizda yetishib chiqqan bu kabi buyuk allomalar kop'chilikni tashkil etadi. Ayniqsa Islom olamida o'ziga xos alohida hurmat va e'tiborga sazovor, musulmon yurtlari ichida bizga faxr bag'ishlovchi buyuk ajdodlarimiz shubhasiz islom ummatlari dilidan chuqur joy egallagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Va bu ajdodlarimiz davomchilari bo'lmish olim u ulamolar hozirgi kunda ham ilm nurlarini taratib turibdi. Shulardan biri shayx Usmonxon Alimovdir.

U Islom diniga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug'allomalar, aziz avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kuchaytirish kabi fazilatlarni shakllantirishda beqiyos xissalarini qo'shgan.



Usmonxon Alimov Temirxon o`g`li 1950-yil 1-yanvarda Samarqand viloyati Ishtixon tumani Orlot qishlog`ida tug`ildi. Bobomiz oilada katta farzand bo`lib, undan keyin Sultonxon, Islomxon va Badriddinxon eshon bobolarimiz tug`ilgan. 1958-yili yozida yana bitta ukasi dunyoga keladi. Ming afsuslar bo`lsinki bu chaqaloq 5-6 oylik bo`lganida onasidan ajraladi. Juda erta onai mexribonidan ajralgan Usmonxon 4 ta ukasi va otasining xizmatini qilishi, bosh farzad bo`lganligi uchun zimmasiga tushadi. 1982-1983-yillarda Buxoro shahridagi Mir Arab madrasasida, 1983-1987-yillarda Toshkent islom institutida, 1989-1990-yillarda Marokash davlatining Qaraviyyin universitetida tahsil oldi.

Usmonxon Alimov birinchi prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov, Muhammad Yusuf, Dilmurod Islomov, SHerali Jo`rayev bilan birgalikda umri safariga birgalikda borishadi.

U muqaddas dinimiz asoslarini, arab va fors tillarini chuqur egallab, 1986-2006-yillarda Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Imom Buxoriy bosh noibi, imom-immom xatib vazifalarida samarali faoliyat olib bordi. Buyuk ajdodimiz Imom Buxoriy abadiy orom topgan tabarruk ziyoratgohda olib borilgan keng ko`lamli qurilish-obodonlashtirish ishlarida yuksak tashkilotchilik va tashabbuskorlik qobiliyatlarini namoyon etdi.

Usmonxon domla o`zini "Imom Buxoriyning xodimi" deb hisoblar va bunday sharaflari bilan doimo faxrlanar edi. U muhaddislar sultoni bo`lmish buyuk bobomizning hayoti va ijodi to`g`risida yurtimizda birinchilardan bo`lib "Imom Buxoriy barakoti" asarini yozgan yetuk ulamo edi.

2000-2006-yillarda Samarqand viloyati bosh imom-xatibi lavozimida sidqidildan mehnat qilib, katta bilim va hayotiy tajribasini ezgu amallarga safarbar etdi. Bundan tashqari Samarqandda hadis ilmi madrasasini va tug`ilib o`sgan qishlog`ida katta madrasa qurdirishga muvaffaq bo`ladi.

Usmonxon Alimov 2006-yili O`zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy lavozimiga saylandi. O`tgan davr mobaynida u respublikamizda ijtimoiy-ma`naviy, diniy-ma`rifiy muhit barqarorligini ta`minlash, dinimizning insonparvarlik mohiyatini asrash va keng targ`ib etish, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat va bag`rikenglik ruhida tarbiyalash, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash ishiga beqiyos hissa qo`shdi.

Fidoiy olimning "Imom Buxoriy-muhaddislar sultoni", "Imom Buxoriy barokoti", "9-10 asrlarda kalom ilmining rivojlanishi", "Hazrati imom", "Yoshlar-



kelajagimiz”, “Rasulullohning muborak vasiyatlari”, “Rasululloh mo`jizalari”, “Oilada farzand tarbiyasi”, “So`ragan edingiz” kabi asarlari bugungi kunda dinimizning asl mohiyatini tushuntirish uchun hizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari yuzlab maqolalar dunyo yuzini ko`rgan.

O`zbekiston musulmonlari idorasida so`nggi yillarda amalga oshirilgan diniy sohadagi islohotlar, xususan, yangi madrasa va masjidlarning ochilishi, Qur`on o`qitish kurslarining tashkil qilinishi, Qur`oni karimning arab va o`zbek tillarida chop etilishi, idora qoshida axborot markazining tashkil etilishi, “Vaqf” xayriya jamoat fondining faoliyatini yo`lga qo`yish, musulmon mamlakatlari va xorijiy hamkorlar bilan munosabatlarning mustahkamlanishi kabi xayrli ishlarda muftiy hazratning xizmatlari katta bo`ldi.

Usmonxon Alimov yurtimiz musulmonlarining hurmat-ehtromiga sazovor bo`lish bilan birga, nafaqat Markaziy Osiyoda balki musulmon dunyosida yuksak obro`-e`tibor qozongan ulkan ilm va ma`rifat sohibi sifatida e`tirof etilgan zot edi.

Muftiy hazratlari 2012-yilda Islom olami uyushmasi ta`sis majlisining a`zosi hamda Butundunyo ulamolar kengashi a`zosi etib saylandi. Ma`lum bir vaqt o`tib Iordaniyaning Islomiy strategik tadqiqotlar markazi tomonidan e`lon qilinadigan “Jahonning eng nufuzli 500 musulmoni” ro`yxatidan munosib o`rin egalladi.

2006, 2011 va 2016 yillarda tegishliligicha Mustaqillikning 15, 20 va 25 yilligiga bag`ishlangan esdalik nishonlari bilan taqdirlanganlar. Shuningdek, 2021 yil 19 apreldagi O`zbekiston faxriylarining ijtimoiy qo`llab-quvvatlash “Nuroni” jamg`armasi Vasiylik Kengashi qarori asosida Birinchi darajali “Mehnat faxriysi” ko`krak nishoni bilan ham taqdirlangan edilar.

Ustozning yana bir xizmatlariga to`htalmasak bo`lmas. Prezident SHavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-iyuldagi “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Huzurida O`zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora tadbirlari to`g`risida”gi qarori ijrosi doirasida mamlakatda keng ko`lamli ishalar amlaga oshirildi. Davlat rahbarining ushbu ezgu tashabbusi hayotga tatbiq etiishi va mazkur hujjat qabul qilingan ilk kunlardanoq uning ichrosini taminlashda O`zbekiston musulmonlar idorasi raisi, Usmonxon Alimov katta jonbozlik ko`rsatdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 1 yanvar kungi Farmoniga asosan tinchlik-osoyishtalik, farovonlik kabi islomiy tamoyillarga sodiqligi, yosh avlodni milliy va umuminsoniy g`oyalar, Vatanga sadoqat ruhida



tarbiyalash ishiga katta hissa qo'shganlari, uzoq yillardan buyon Islom dinining insonparvarlik, oliyjanoblik g'oyalarini keng targ'ib qilganlari uchun O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov hazratlari "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan edilar.

Bu kishining shu darajaga yetishishiga u zotni nasablarining o'zni ham katta ekan. Bu kishining ajdodlari Maxmud Mazam rahmotullohi alayhi orqali, payg'ambarimiz alayhisalomga borib yetar ekan.

Eshon bobomiz Moskvadagi shifoxonada o'pka va qon-tomir kasalliklari xususan o'pka pnevmoniyasi bo'yicha davolanayotgan edi. Usmonxon Alimov 2021-yili 15-avgustda 71 yoshida vafot etadi va uning qabirlari o'zi tug'ulib o'sgan Samarqanddagi Orlot qishlog'idagi "Eshoni Temirxon To'ra" jome masjidiga qo'yildi Keyinchalik bu masjidda qaytadan tamirlash va obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Xalqimizning ajoyib farzandi, mashhur ulamo, atoqli jamoat arbobi, yoshlarning mehribon ustoz, kamtarin va samimiy inson Usmonxon Alimovning yorqin xotirasi qalbimizda hamisha saqlanib qoladi. Bugungi globollashuv juda tezlab boratotgan zamonamizda bunday kishilarning hayotlaridan o'rnak-namuna olishga juda muhtojmiz. Yoshlarni tarbiyalashimizda bevosita hazratning hayoti, ilm-marifati va ma'naviy me'rosidan foydalanishimiz kerak. Shuni alohida takidlash joizki, o'rganilayotgan alloma, u kishining asarlari va hayot yo'li nafaqat nazariy tarafdin, balki o'rganishlar natijasida, mavjud ijtikmoiy muammolarga amaliy yechim bo'la olishi bilan ham etiborga moliqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonxon Alimov "Tafsiri irfon" 6 jild. "Sharq",2019
2. Usmonxon Alimov."Tafsir"
3. Usmonxon Alimov. "Imom al-Buxoriy barakoti". "Movarounnahr",2007
4. Usmonxon Alimov. "Dunyo ulamolari murojati". "Movarounnahr",2016
5. Usmonxon Alimov. "Oilada farzand tarbiyasi". "Movarounnahr",2014
6. Usmonxon Alimov. "Hazrati imom". "Movarounnahr",2008
7. Usmonxon Alimov. "O'zbekiston musulmonlar idorasi"
8. Usmonxon Alimov. "O'zbekiston ulamolari".

